Mamlakatimiz umumta'lim maktablarida matematik ta'limni takomillashtirish hamda o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o'rganish, ularning muvaffaqiyatlari, xatolari va amaliy yechimlaridan saboq olish ayni kun ta'limi uchun qilinishi lozim ishlardan hisoblanadi. Xalqaro miqyosdagi ta'lim tadqiqotlari (masalan, PISA, TIMSS) va ilg'or davlatlarning yutuqlari matematik ta'lim rivojlanishining global yo'nalishlarini belgilaydi. Xususan, bugungi kunda matematik savodxonlik faqatgina arifmetik amallarni bajarish emas, balki murakkab muammolarni modellashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Xorijiy tajribalarda bu holat juda yaxshi natijalar bergan. Shuningdek, dasturlash, sun'iy intellekt elementlari, katta ma'lumotlar bazasi bilan ishlash, an'anaviy usullardan



chetga chiqib, loyiha asosida o'qitish (project-based learning), so'rovga asoslangan o'rganish (inquiry-based learning) va hamkorlikdagi o'rganish (collaborative learning) kabi yondashuvlarni o'rganish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish bizga “eng yaxshi amaliyotlar”ni aniqlash imkonini beradi. Bu amaliyotlar faqatgina yuqori reytinglar bilan emas, balki o'quvchilarning motivatsiyasi, o'zlashtirish qobiliyati va tafakkur jarayonlarining chuqurligi bilan ham o'lchanadi. Xususan, Singapur modeli muammolarni hal qilishga qaratilgan “matematika o'quv dasturi” (Ministry of Education, 2006) va “spiral o'quv dasturi” yondashuvi orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun samarali ekanligini ko'rsatadi. Finlandiya yondashuvida esa matematik tushunchalarni chuqur tushunish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish o'quvchi farovonligi, o'qituvchilarning yuqori malakasi hamda loyiha asosida ta'lim berishga qaratilgan yondashuv orqali izohlanadi (Sahlberg, 2015). Estoniyada esa yangi matematik tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilarning algoritmik fikrlashi va kompyuter savodxonligiga alohida e'tibor berilishi ta'kidlanadi (OECD, 2018). Bu amaliyotlarni chuqur o'rganish ularning O'zbekiston ta'lim tizimining o'ziga xos sharoitlari va madaniy kontekstiga qanday mos kelishini aniqlashga yordam beradi.

Har qanday ta'lim islohoti jarayoni o'ziga xos qiyinchiliklarga ega. O'zga mamlakatlarda o'qituvchilarni tayyorlash, o'quv materiallarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yoki o'quvchilarning motivatsiyasini saqlab qolishda duch kelgan muammolarni o'rganish bizga kelajakdagi to'siqlarni oldindan bilish va ularni bartaraf etish uchun samarali yechimlar ishlab chiqishda yordam beradi. Xorijiy tajribalar tahlili tadqiqot ishimizga akademik qiymat berish bilan birga, amaliy takliflar ishlab chiqishimiz uchun asos bo'ladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda matematik tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha milliy o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda ta'lim muhitini o'quvchilarning tafakkurini rag'batlantiradigan tarzda o'zgartirish bo'yicha asosli tavsiyalar berishimizga turtki bo'ladi.

Xorijiy tajribalarni o'rganish va tahlil qilish mobaynida biz yana quyidagi imkoniyatlarni qo'lga kiritishimiz mumkin. Ya'ni matematika ta'limi sohasidagi xalqaro innovatsiyalar, ilg'or pedagogik yondashuvlar va texnologik yechimlar haqida tushunchalar hosil qilish (OECD, 2018), turli mamlakatlarda matematik tafakkurni rivojlantirish bo'yicha qanday samarali strategiyalar qo'llanilayotganini aniqlash imkoniyatini beradi (Sahlberg, 2015). Shu bilan birga, turli mamlakatlarda joriy etilgan ta'lim islohotlari jarayonida yuzaga kelgan muammolar va qiyinchiliklarni o'rganish, shunga o'xshash vaziyatlarning oldini olish, O'zbekiston ta'lim tizimining mavjud holatini xalqaro standartlar va muvaffaqiyatli modellar bilan qiyoslash orqali kuchli va zaif tomonlarini aniqlash (TIMSS & PIRLS International Study Center, 2020), xorijiy tajribalar tahlili asosida milliy o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish, darsliklarni qayta nashr qilish yoki yangidan yaratish bo'yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha asosli takliflarni berish imkonini yaratadi.

PISA 2022: Mathematics

Score of highest performing countries in the PISA assessment of 15-year old students' proficiency in mathematics:

1	Singapore	575
2	Macao (China)	552
3	Chinese Taipei	547
4	Hong Kong (China)	540
5	Japan	536
6	Korea	527
7	Estonia	510
8	Switzerland	508
9	Canada	497
10	Netherlands	493
11	Ireland	492
12	Belgium	489
13	Denmark	489
14	United Kingdom	489
15	Poland	489

Source: OECD - Created with Datawrapper

Активация Windows

Чтобы активировать Windows, перейдите в раздел "Параметры".

1-rasm: PISA–2022 xalqaro baholash dasturida matematika savodxonligi bo'yicha yetakchi davlatlar reytingi



Ta'lim sohasida samaradorlikka erishish maqsadida ko'plab davlatlar o'ziga xos va samarali yondashuvlarni qo'llab kelmoqda. Bu davlatlar dunyo miqyosida o'quvchilarning bilim darajalarini aniqlovchi xalqaro baholash dasturlarida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Quyida Singapur, Janubiy Koreya, Finlandiya va Estoniya kabi bir necha xorijiy davlatlarning maktab ta'lim tizimi, xususan, matematik tafakkur kompetensiyasiga yondashuvlari tahlil qilinadi:




2-rasm: Matematik ta'limni rivojlantirishda Singapur, Finlandiya, Estoniya va Janubiy Koreya tajribalarining o'zaro ta'siri

Ushbu davlatlarning PISA-2022 xalqaro baholash dasturida matematik savodxonlik bo'yicha ko'rsatgan natijalarini OECD tomonidan taqdim etilgan quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.

PISA-2022 xalqaro baholash dasturida O'zbekistonning 15 yoshli o'quvchilari matematik savodxonlik bo'yicha ko'rsatgan natijalarini OECD tomonidan taqdim etilgan quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.

Figure 3. Mean performance in mathematics, by international quintiles of socio-economic status



3-rasm: PISA-2022 tadqiqotida ijtimoiy-iqtisodiy holat (SES) kvintillari bo'yicha matematika natijalarini

Shuningdek, umumiy natijalarni ham ko'rib chiqish orqali xulosa qilish mumkin. O'quvchilarning matematik tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirishda PISA tadqiqotlarida yuqori natijalarni qayd etib kelayotgan davlatlar maktab ta'limida qo'llanilayotgan yondashuvlarni o'rganib chiqish va ularning samarali jihatlarini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish zarur.

PISA tadqiqotlarida so'nggi yillarda matematik savodxonlik bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab kelayotgan Singapur ta'limi tajribasi haqidagi fikrlarimiz quyidagilarda namoyon bo'ladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mazkur ishda sifat jihatidagi tahliliy yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar asosan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, xalqaro tadqiqotlar natijalarini o'rganish va taqqoslash usullari orqali to'plandi. Singapur ta'lim tizimida matematik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar haqida ma'lumotlar ilmiy monografiyalar, maqolalar hamda xalqaro baholash dasturlari – PISA va TIMSS hisobotlari asosida yig'ildi. Shuningdek, ta'lim siyosati va o'quv dasturlariga oid rasmiy hujjatlar kontent-tahlil usuli orqali o'rganildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy-pedagogik tahlil, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish usullari yordamida tahlil qilindi. Natijada Singapur ta'lim modelida qo'llanilayotgan spiral o'quv dasturi, muammoli o'qitish va o'quvchilarni differensial guruhlariga ajratish kabi metodlarning matematik tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlanib, ularni O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida qo'llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Singapur ta'lim tashkilotlari TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro baholash dasturlarida doimiy ravishda yuqori natijalarni ko'rsatib keladi (Ministry of Education, 2025; OECD, 2018). Singapur tajribasi, ayniqsa, matematik muammolarni hal qilishga (problem-solving) asosiy urg'u berishi bilan ajralib turadi. Bu o'quv dasturlarida namoyon bo'ladi. Singapurda matematika fani dasturi "Matematik muammolarni hal qilish"ni asosiy markaz sifatida belgilaydi (Ministry of Education, 2006). Bu yondashuv o'quvchilarga nafaqat matematik bilimlarni egalash, balki ularni turli vaziyatlarda qo'llash, mantiqiy fikrlash va ijodiy yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, ta'limda spiral o'quv dasturi tamoyili qo'llaniladi, bu esa tushunchalarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirishni ta'minlaydi (Kaur, 2002).

Shuningdek, Singapur ta'limida o'quvchilarning qobiliyatiga qarab guruhlariga ajratish (streaming) keng qo'llaniladi. Boshlang'ich maktabning yo'nalish bosqichidan boshlab, o'quvchilar "Asosiy matematika" yoki "Matematika" kurslarini tanlaydilar. O'rta maktabda esa "Maxsus", "Ekspress" va "Oddiy (akademik/texnik)" kurslarga bo'linish kuzatiladi (Kaur, 2002; Ministry of Education, 1992). Bu yondashuv har bir o'quvchining tafakkur salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgandir (Ministry of Education, 2012a, 2012b, 2012c). Aytish mumkinki, maxsus/ekspress kursda algebraik ifodalar, formulalar, oddiy algebraik manipulyatsiya va chiziqli tenglamalarni yechishga urg'u beriladi. Muammoni tushunish va matematik ifodalarga aylantirish qobiliyati talab qilinadi (Ministry of Education, 2012a). Oddiy (akademik) kurs ham maxsus/ekspress kursiga o'xshash mavzularni o'z ichiga oladi, ammo chuqurlik biroz kamroq bo'lishi mumkin (Ministry of Education, 2012b). Oddiy (texnik) kursda texnik yo'nalishdagi o'quvchilar uchun matematika o'qitiladi. Bu kursda algebraik ifodalarning asosi, raqamlarni harflar o'rniga qo'yish, oddiy ifodalarni soddalashtirish kabi amaliy tushunchalarga ko'proq e'tibor beriladi. Qavslar va yuqori darajali ifodalar kabi murakkabroq mavzular bu darajada kamroq o'qitiladi (Ministry of Education, 2012c).

1998-yilda amalga oshirilgan mazmunni qisqartirish harakati matematika ta'limida "miqdor"dan "sifat"ga o'tishni maqsad qilgan. Asosiy mavzular saqlanib qolgan, ammo kamroq ahamiyatli, mexanik hisob-kitoblarga qaratilgan yoki boshqa fanlar bilan qisman o'xshash bo'lgan mavzular olib tashlangan (Kaur, 2002). Bu o'quvchilarga asosiy tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirishga va yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'proq vaqt beradi. 1997-yildan boshlab joriy etilgan "Tanqidiy va ijodiy fikrlash" tashabbusi matematika darslariga ham tatbiq etilgan (Ministry of Education, 1998). Bu o'quvchilarga masalalarga standart bo'lmagan yechimlarni topish, turli yondashuvlarni o'rganish va matematik tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. 2003-yilda ishga tushirilgan "Kamroq o'qitish, ko'proq o'rganish" (TLLM) tashabbusi "yoddan o'rganish, takroriy testlar va belgilangan javoblar hamda tayyor formulalarga amal qilish"dan voz kechishni targ'ib qiladi. Buning o'rniga, "sinfdan o'zaro aloqa, o'zini ifoda etish imkoniyatlari, umr bo'yi zarur ko'nikmalarni o'rganish va xarakterni shakllantirish"ga e'tibor qaratiladi (Kaur, 2002). Bu yondashuv o'quvchilarning chuqurroq tushunishini, faol ishtirok etishini va mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi.

Singapurda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga katta e'tibor beriladi. Milliy ta'lim instituti (NIE) barcha o'qituvchilarni tayyorlaydi va ularning doimiy malakasini oshirishga investitsiya kiritadi (National Institute of Education, 2002). "Enhanced Performance Management System (EPMS)" tizimi orqali o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirish rag'batlantiriladi, bu esa matematik tafakkurni rivojlantiruvchi darslarni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi (Ministry of Education, n.d.). O'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi muhim deb hisoblanadi. Har yili ularga 100 soatlik moliyalashtirilgan o'quv va malaka oshirish kurslari taqdim etiladi (Kaur, 2002). Bu o'qituvchilarning matematikadagi eng so'nggi tendensiyalar, pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar bilan tanish bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan matematikani o'qitish va o'rganishda foydalanish rag'batlantiriladi, bu esa mavhum tushunchalarni vizuallashtirishga va o'rganish jarayonini interaktiv tarzda olib borish imkoniyatini beradi (Kaur, 2002). Singapur ta'lim tizimining o'ziga xos kuchli tomonlaridan yana

biri matematikani o'qitishda o'quvchilarning qobiliyatiga qarab ajratishga e'tibor berilishi hisoblanadi. O'zbekiston ta'limida matematikani o'qitishda shunga o'xshash usullarni joriy etish imkoniyatlarini, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilib, har bir o'quvchining o'z qobiliyatiga mos matematik tafakkurini rivojlantirish bo'yicha taklif berish mumkin.

Singapurning mazmunni qisqartirish tajribasi bizga matematikada keraksiz takrorlashlar yoki juda mavhum mavzulardan voz kechib, asosiy tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirish va amaliy qo'llashga e'tibor qaratish muhimligini ko'rsatadi. Ushbu tajribani O'zbekiston maktablari matematika dasturlariga tatbiq etish rejasini ko'rib chiqish foydadan xoli emas.

Matematik muammolarni hal qilishni o'quv dasturining markaziy nuqtasiga qo'yish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, tahliliy qobiliyatlar va ijodkorlikni rivojlantirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Matematika darslarida muammoli o'qitish usullarini, real hayotiy vaziyatlarda masalalarni qo'llashni va o'quvchilarning mustaqil yechim topish qobiliyatini oshirish usullarini tadqiq qilish mumkin.

Singapur tajribasi o'qituvchining ta'lim tizimida hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Matematika o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini, ularning yangi o'qitish metodologiyalarini o'zlashtirishini va o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil etishda ularga motivatsiya berish yo'llarini o'rganish hamda EPMS kabi baholash tizimlarining samaradorligini O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish haqida tavsiyalar berish mumkin.

AKT vositalaridan matematikani o'qitishda samarali foydalanish o'quvchilarning o'rganish jarayoniga jalb qilinishini va mavhum tushunchalarni tushunishini yaxshilaydi. Matematikani o'qitishda interaktiv dasturlar, virtual laboratoriyalar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish keng yo'lga qo'yilganligi diqqatga sazovor.

Singapur ta'lim tizimining matematikadagi yuksak natijalari o'quv dasturining o'ziga xos tuzilishi, o'qitish metodologiyasi va o'qituvchilarga beriladigan katta e'tibor bilan bog'liq. Matematik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan asosiy jihatlarni hayotiy hamda matematik misollarda quyidagicha ko'rib chiqish mumkin.

Singapurda matematika o'qitishning asosiy maqsadi – o'quvchilarga matematik bilimlarni kundalik hayotdagi muammolarni hal qilishda qo'llashni o'rgatishdan iborat. Spiral o'quv dasturi esa tushunchalarni yildan-yilga chuqurlashtirishni ta'minlaydi.

Bu fikrimizni quyidagicha hayotiy misol bilan dalillaymiz: bir o'quvchi o'z mahallasidagi avtobus yo'nalishlarining samaradorligini tahlil qilmoqchi. U avtobuslarning qatnov vaqtlarini, yo'lovchilar sonini va umumiy masofani hisoblab chiqadi. Keyin bu ma'lumotlar asosida avtobuslarning kelish vaqtlarini optimallashtirish, yo'nalishlarni o'zgartirish yoki qo'shimcha avtobuslarni yo'lga qo'yish bo'yicha matematik model yaratadi. Bu vazifa uning ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, optimallashtirish va prognozlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Matematik misol: o'quvchilarga Pifagor teoremasi dastlab faqat to'g'ri burchakli uchburchakning tomonlari orasidagi bog'liqlik sifatida o'rgatiladi. Keyinchalik spiral dastur orqali bu tushuncha uch o'lchovli fazoda masofani topish (masalan, kubning diagonalini) yoki analitik geometriyada ikki nuqta orasidagi masofani hisoblash kabi murakkabroq vaziyatlarda qo'llaniladi. Bu o'quvchining tushunchalarni chuqur tushunishi va ularni turli kontekstlarda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Singapurda o'quvchilarning qobiliyatiga qarab guruhlariga ajratish (streaming) keng qo'llaniladi (Kaur, 2002; Ministry of Education, 1992). Bu har bir o'quvchining tafakkur salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan (Ministry of Education, 2012a, 2012b, 2012c).

Yana bir hayotiy misol: "Maxsus" kursda o'qiydigan o'quvchi murakkab moliyaviy investitsiyalar (masalan, foiz stavkalari, inflyatsiya va risklarni hisobga olgan holda) samaradorligini matematik modellashtrish bilan shug'ullanadi. "Oddiy (texnik)" kursda o'qiydigan o'quvchi esa kundalik xaridlar uchun byudjet tuzish, chegir-malarni hisoblash yoki maishiy ehtiyojlar uchun eng maqbul kreditni tanlash kabi amaliy masalalarni o'rganadi. Bu har bir o'quvchining o'z qiziqishlari va kelajakdagi ehtiyojlariga mos ravishda matematik tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi.

Matematik misol sifatida quyidagini keltiramiz: o'quvchilarga chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning turli usullari (o'rniga qo'yish, qo'shish, matritsalar orqali) o'rgatiladi va ular kompleks muammolarni (masalan, ikki o'zgaruvchili optimallashtirish masalalarini) hal qilishda qo'llanadi.

Oddiy (akademik) kurslarda esa tenglamalar sistemasining asosi, soddalashtirishlar va amaliy masalalarga ko'proq e'tibor beriladi.

Oddiy (texnik) kurslar asosan oddiy ifodalarni soddalashtirish, raqamlarni harflar o'rniga qo'yish (masalan, $C = 2\pi r$ formulada r berilganda C ni topish) kabi amaliy masalalarni o'z ichiga oladi.

1998-yildan amalga oshirila boshlagan mazmunni qisqartirish harakati matematika ta'limida "miqdor"dan "sifat"ga o'tishni maqsad qilgan. Kam ahamiyatli, mexanik hisob-kitoblarga qaratilgan mavzular olib tashlangan (Kaur, 2002). Bu o'quvchilarga asosiy tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirishga va yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'proq vaqt beradi.

Yana bir hayotiy misolga murojaat qilamiz: o'quvchilar xarajat hisob-kitoblarida ortiqcha murakkab arifmetik amallarni yodlash o'rniga o'rtacha qiymat, dispersiya va standart og'ish kabi statistik tushunchalarni real ma'lumotlar (masalan, iste'mol savati narxlarining o'zgarishi) asosida chuqurroq o'rganadilar. Bu ularning ma'lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.



Matematik misol: matematikada murakkab va kam qo'llaniladigan formulalarni yoddan bilish o'rniga o'quvchilar differensial va integral hisobning asosiy prinsiplarini real dunyo muammolarida (masalan, harakat tezligini topish, hajmni hisoblash) qo'llashga ko'proq e'tibor beradilar. 1997-yildan boshlab joriy etilgan "Tanqidiy va ijodiy fikrlash" tashabbusi matematika darslariga ham tatbiq etilgan (Ministry of Education, 1998). Bu o'quvchilarga masalalarga standart bo'lmagan yechimlarni topish, turli yondashuvlarni o'rganish va matematik tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Hayotiy misolga kelsak, o'quvchilarga shahardagi tirbandliklar muammosini hal qilish vazifasi beriladi. Ular mavjud transport tizimini tahlil qiladilar va muammoni hal qilishning bir nechta ijodiy usullarini taklif qiladilar: masalan, jamoat transportini optimallashtirish, velosiped yo'lakchalarini ko'paytirish, aqlli svetofor tizimini joriy etish. Har bir yechimni matematik modellar (masalan, optimal yo'nalishlar, tirbandlik ehtimolini hisoblash) orqali asoslaydilar. Bu ularning muammolarni kompleks hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Matematik misol: o'quvchilarga "katta qog'oz varag'idan eng katta hajmli quti yasash" vazifasi beriladi. Ular bu muammoni hal qilish uchun turli xil matematik yondashuvlarni (masalan, differensial hisob, geometrik optimallashtirish, grafik tahlil) qo'llaydilar. Bir nechta yechim variantlarini ko'rib chiqadilar, ularni taqqoslaydilar va eng optimalini topadilar. Bu ularning muammolarni bir nechta usulda yechish, eng samarali yechimni tanlash va matematik fikrlashda ijodkorlikni namoyon etish qobiliyatini oshiradi.

2003-yilda ishga tushirilgan bu tashabbus "yoddan o'rganish, takroriy testlar va belgilangan javoblar hamda tayyor formulalarga amal qilish"dan voz kechishni targ'ib qiladi (Kaur, 2002). Buning o'rniga "sinfda o'zaro aloqa, o'zini ifoda etish imkoniyatlari, umr bo'yi zarur ko'nikmalarni o'rganish va xarakterni shakllantirish"ga e'tibor qaratilishi bilan ahamiyatlidir.


Hayotiy misolga murojaat qilamiz: o'qituvchi o'quvchilarga "Shahrimizda yashil hududlarni qanday ko'paytirish mumkin?" degan muammoni beradi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, o'z yechimlarini taklif qiladilar: har bir o'quvchi xonadoniga necha tup daraxt ekish kerakligini, jamoat joylariga necha kvadrat metr gulzor qilish kerakligini hisoblaydilar. Bu jarayonda ular bir-biri bilan fikr almashadilar, o'z g'oyalarini himoya qiladilar va birgalikda matematik yechim topadilar. Bu ularda jamoaviy ishlash, muloqot qilish va o'zini ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Matematik misol: o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bir geometrik shakl (masalan, piramida) haqida ma'lumot beradi, lekin uni yechish uchun tayyor formula bermaydi. Buning o'rniga o'quvchilarga o'zaro hamkorlikda piramidaning hajmini yoki sirt maydonini topish uchun turli usullarni (masalan, bo'laklarga ajratish, koordinata usuli) o'ylashni taklif qiladi. O'quvchilar munozara qiladilar, o'z g'oyalarini taqdim etadilar va birgalikda eng samarali yechimni topadilar. Bu ularda mustaqil fikrlash, muammolarni mustaqil hal qilish va matematik tushunchalarni chuqur tushunish qobiliyatini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Singapur tajribasi O'zbekiston ta'lim tizimida matematik tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qimmatli saboqlar beradi.

O'zbekiston umumta'lim maktablariga joriy etish bo'yicha quyidagi takliflarni beramiz:



4-rasm: Singapur ta'lim tajribasi asosida O'zbekiston maktablarida matematik tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirish yo'nalishlari



Singapur tajribasidan olingan ushbu ko'rsatmalar O'zbekiston ta'lim tizimida matematik tafakkur kompetensiyalarini yanada yuqori darajaga olib chiqish uchun muhim yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toh, T. L., Kaur, B., & Tay, E. G. (Eds.). (2019). Mathematics Education in Singapore. Springer Singapore. DOI: 10.1007/978-981-13-3573-0 (link.springer.com)
2. Tan, O. S., Low, E. L., Tay, E. G., & Yan, Y. K. (Eds.). (2021). Singapore Math and Science Education Innovation: Beyond PISA. Springer Singapore. DOI: 10.1007/978-981-16-1357-9 (link.springer.com)
3. Lee, S.-S., Chua, B. L., Chia, A., Ong, M. W. L., & Costes-Onishi, P. (Eds.). (2025). Teacher Professional Learning: The Singapore Perspective. Springer Singapore. DOI: 10.1007/978-981-96-4714-9 (link.springer.com)
4. Toh, T. L. (2020). A glimpse into the mathematics education research in Singapore. Hiroshima Journal of Mathematics Education, 13, 99–120. (jstage.jst.go.jp)
5. Curriculum integration in Singapore: Teachers' perspectives and practice. (2013). Teaching and Teacher Education, 31, 23–34. (sciencedirect.com)
6. Bruner, J. (1960). The Process of Education. Harvard University Press. (CPA metodikasi asoslarini tushunish uchun muhim) (JournalSS)
7. Polya, G. (1957). How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. Princeton University Press. (Muammolarni hal qilish yondashuvi uchun) (Wikipedia)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.